

**OILAVIY ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARGA HIMOYA
ORDERINING TA'SIS ETILISHI HAMDA UNING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI.**

Dilyora Jo'raboy qizi Bekmirzayeva ¹

¹ Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Psixologiya

faoliyat turi yo'nalishi 2-kurs magistranti

e-mail: bekkmirzaevadilyora@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.04.2025

Revised: 05.04.2025

Accepted: 06.04.2025

KALIT SO'ZLAR:

*zo'rvonlik, himoya
ordeni, Zo'rvonlikka
qarshi birgalikda
kurashamiz, qonun,
gender komissiyasi,
xotin-qizlar
jamoatchilik kengashi,
shelter;*

Ushbu maqola zo'rvonlik holatlarini oldini olish va kamaytirish maqsadida himoya orderi tatbiq etish hamda xalqaro tajribalarni o'rganish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada zo'rvonlikning turli shakllari, ularning jamiyatga ta'siri va oldini olish chora-tadbirlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Xalqaro tajribalardan foydalanish orqali samarali strategiyalar ishlab chiqish va ularni milliy darajada tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, zo'rvonlikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning ahamiyatini yoritadi va turli mamlakatlar o'rtasida tajriba almashishning zarurligini ta'kidlaydi. Shu orqali, zo'rvonlikka qarshi kurashda innovatsion yondashuvlar va integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlari ochib beriladi.

KIRISH. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik holatlari alohida toifaga kiritiladi. Chunki bunday holatlarning oldini olish ham, ularning oqibatlarini bartaraf etish ham o'ziga xos farqli jihatlarga ega. Ekspertlarning fikricha, uy sharoitidagi zo'rvonlik va xarassment (tegajog'lik) – bu noxush vaziyatlarning shunday bir turiki, ularga ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq duch keladilar. Boisi oddiy – ular aynan ayol bo'lganliklari uchun ko'p hollarda zo'rvonlik qurbonlariga aylanadilar.

Ma'lumki ayollarga nisbatan zo'ravonlik jamiyatda juda katta muammoga aylanib bormoqda. Har kuni minglab ayollar zo'ravonlikdan jabr ko'rib kelyapti. Ming afsus bilan ayitshimiz mumkinki, zo'ravonlik qurboniga aylanayotgan, o'z turmush o'rtog'i tomonidan ayanchli o'lim topayotgan ayollar ham yo'q emas... Bu esa o'z navbatida jamiyat uchun mamlakat rivoi uchun juda kata xavf degani.... Bundan tashqari zo'ravonlik va tazyiqlar zamirida o'z joniga qasd qilish holatlarining sodir bo'layotganligi juda juda achinarli holat. Mamlakatimizda bu kabi holatlarni kamaytirish ularni oldini olish uchun juda ko'plab islohotlar olib borilib, bu borada juda yaxshi natijalarga erishilmoqda.

Jumladan, mamlakatimiz olimlari M.Bekmurodov, A.Umarov, M.Ganiyeva, M.Nurmatova, Sh.Sodiqova, T.Narbayeva, N.Latipova, D.Toshmuxammedova, M.Gaffarova, G.O.Rozaliyevalarning ishlarida xotin-qizlar jamiyat hayotida munosib o'rin egallashi, xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi gender tengligini ta'minlash, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, xotin-qizlar ijtimoiy nufuzini oshirish hamda O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda innovatsion mexanizmlarni aniqlash kabi masalalarda keng ko'lamli ishlar olib borganlar.[1] Haqiqatan ham mamlakatimizda aynan jamiyat rivojida ayol-qizlar roli, ularning ahamiyatini ko'rsatib beradigan sohada amalga oshirilayotgan ishlar taxsinga loyiq.

Himoya orderi – tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanilishiga sabab bo'ladigan hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat tazyiq va zo'ravonlik qurboni bo'lgan jabrdiyda xotin-qizlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan beriladi. Turmush o'rtog'i, sevgan yigiti, qaynota-qaynonasi, qaynsingillari, qo'ni-qo'shni, ish joyida bo'lsa, rahbari va boshqalar tomonidan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollar mazkur order asosida qonuniy tarzda muhofaza qilinadi.

2019 yil sentyabrida «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida» qonun e'lon qilingandi. Unda tazyiq va zo'ravonlik nimaligiga aniqlik kiritilgan, tazyiq va zo'ravonlikning jinsiy, jismoniy, iqtisodiy va ruhiy shakllari izohlangan. Ushbu qonun xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga jalb etilgan tuzilma va idoralarning vazifalarini aniqlashtirib, ularning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini takomillashtirishga zamin hozirladi. Unda nazarda tutilgan eng muhim o'zgarishlardan biri – bu fuqarolar yig'inlarining vakolatlari kengaytirilishi bo'ldi. Jumladan, unga ko'ra, fuqarolar yig'inining tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni

belgilashi, shuningdek mazkur faktlar to'g'risida tegishli ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari hamda ichki ishlar organlarini zudlik bilan xabardor qilishi nazarda tutilgan. Bu juda muhim, chunki ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari ko'proq oilada qayd etiladi, oila esa mahallaning bir qismi. Hattoki taraqqiyot har soniyada ilgarilab borayotgan 21 asrda ham o'zbek jamiyatida mahallaning roli oshsa oshdiki, lekin o'z ta'sir kuchini yo'qotgani yo'q. Qolaversa, zo'ravonlikka qo'l urgan shaxs va bunday holatlar qayd etilgan oila, hattoki ularning ajdodlari haqida aynan mahalla fuqarolar yig'inlarida ishonchli ma'lumotlar bo'ladi. Kezi kelganda hattoki huquq-tartibot organlarining choralaridan ko'ra mahalla ahlining munosabati zo'ravon xulqini o'zgartiruvchi asosiy omil bo'lishi mumkin. Shu jihatdan tegishli normalarning yangi qonunga kiritilishi ayollarga nisbatan oiladagi zo'ravonlikni bartaraf etish borasidagi sa'y-harakatlarning ta'sirchanligini oshiradi.

Himoya orderidan foydalangan ayollar sonining oshishi muammolar ko'payganligini anglatmaydi. Aksincha, bu jamiyatimizda ayollar orasida huquqiy madaniyatning oshib borayotgani va joylarda profilaktika inspektorlari samarali faoliyat yuritayotganidan darak beradi. Shunisi e'tiborliki, mamlakatimiz BMTning shartnoma organlari, BMT Xotin-qizlar tuzilmasi, BMT Taraqqiyot dasturi va BMTning Aholishunoslik jamg'armasi bilan gender mavzusidagi bir qator masalalar, shu jumladan, gender zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha faol hamkorlik qilib kelmoqda

Himoya orderining ijtimoiy-psixologik nuqati nazardan ahamiyati ham beqiyos. Xususan, Ijtimoiy-Psixologik Ahamiyati quyidagicha ta'riflash mumkin:

Xavfsizlikni Ta'minlash:

✓ **Jismoniy xavfsizlik:** Himoya ordeni ayollarga zo'ravonlikdan himoyalash imkonini beradi, ularni jismoniy tajovuzdan saqlaydi.

✓ **Xavfsiz muhit:** Ayollar va ularning bolalari uchun xavfsiz yashash muhitini yaratadi.

Psixologik Qo'llab-quvvatlash ahamiyati:

✓ **Stressni kamaytirish:** Himoya ordeni ayollarga ruhiy xotirjamlik va stressni kamaytirishga yordam beradi.

✓ **O'zini himoyalash hissi:** Ayollarga o'zini himoya qilingan va qo'llab-quvvatlangan his qilish imkonini beradi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarga ruhiy yordam ko'rsatish, ularning hissiy holatini yaxshilash va stressni kamaytirishga qaratilgan xizmatlar to'plamidir.

Elementlari:

1. Maslahat Berish:

✓ Professional psixologlar va maslahatchilar tomonidan beriladigan individual yoki guruhli maslahatlar.

✓ Ayollarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va ularni boshqarishga yordam berish.(artterapiya,meditatsiya,psixologik treninglar shular jumlasidandir)

2. Stressni Boshqarish:

✓ Stressni kamaytirish texnikalari va mashqlari.

✓ Meditatsiya, nafas olish mashqlari va relaksatsiya usullari.

3. O'zini Anglash va Qabul Qilish:

✓ Ayollarga o'z qadr-qimmatini anglash va o'zini qabul qilishga yordam berish.

✓ Pozitiv fikrlash va o'ziga ishonchni oshirish.

Foydalari:

• **Ruhiy Salomatlikni Yaxshilash:** Ayollarning ruhiy salomatligini yaxshilash va depressiya, xavotir kabi muammolarni kamaytirish.

• **Ijtimoiy Integratsiya:** Ayollarga jamiyatga qayta integratsiyalashish va yangi munosabatlar o'rnatishda yordam berish.

• **Mustaqillikni Oshirish:** Ayollarga o'z hayotlarini boshqarishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam berish.

Psixologik qo'llab-quvvatlash oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning hayot sifatini yaxshilash va kelajakda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy Imkoniyatlar:

✓ **Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:** Himoya ordeni orqali ayollar ijtimoiy xizmatlar, masalan, boshpana, maslahat va psixologik yordam olishlari mumkin.

✓ **Huquqiy yordam:** Ayollarga huquqiy maslahat va yordam olishda yordam beradi, ularning huquqlarini himoya qiladi.

Jamiyatdagi O'zgarishlar:

✓ **Xabardorlikni oshirish:** Himoya ordenlari jamiyatda oilaviy zo'ravonlikka qarshi xabardorlikni oshiradi.

✓ **Zo'ravonlikka nisbatan toqatni kamaytirish:** Bunday choralar jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan toqatni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror Bosh prokuratura tomonidan ishlab chiqilgan. [2]

Unga ko'ra:

• Zoʻrlik ishlatishdan jabr koʻrgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda oʻz joniga qasd qilishning oldini olish Respublika markazi tugatildi;

• Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy boʻlimlari tashkil etildi.

Respublika markazi va hududiy markazlar davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanib, unga mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vaziri tavsiyasiga binoan Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

Shuningdek, qaror bilan ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish boʻyicha respublika, hududiy va tumanlararo 29 ta namunali markazlar tashkil etildi.

Markazlarning asosiy vazifalaridan biri tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan, oʻz joniga suiqaqd qilgan yoki oʻz joniga qasd qilishga moyilligi boʻlgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam koʻrsatish hisoblanadi.

Markazlarga quyidagilar joylashtiriladi:

- zoʻravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari;
- oʻz joniga suiqaqd qilgan yoki oʻz joniga qasd qilishga moyilligi boʻlgan xotin-qizlar.

2021 yil 1 iyundan:

• himoya orderi nusxasini olgan, yaʼni tazyiq oʻtkazgan va (yoki) zoʻravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil boʻlgan shaxslar profilaktik hisobga olinadi;

• markazlarga murojaat qilgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarining yoʻqotilgan biometrik pasportlarini (identifikatsiya ID-kartalarini) tiklab berish choralari koʻriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Himoya ordenlari” oilaviy zoʻravonlikka uchragan ayollar uchun muhim huquqiy vosita boʻlib, ularning xavfsizligini taʼminlash va ruhiy salomatligini qoʻllab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. Zoʻravonlikka qoʻl urishi mumkin boʻlgan shaxslar esa har qanday nojoʻya harakat jazosiz qolmasligini anglab yetadilar. Eng asosiysi, zoʻravonlikka duch kelingan har qanday vaziyatda ham yechim topilishiga ishonch kuchayadi. Shunga qaramay, yilning qolgan qismida, har kuni va hammamiz bu illatga qarshi kurashishimiz mumkin. Bu ishga har birimiz munosib hissa qoʻsha olishimizni doimo esda tutaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2023 yil 11 apreldagi Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada

takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi» 829-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/64302722>.

2. <https://qalampir.uz/uz/news/zurlikdan-zhabr-kurgan-ayellarni-reabilitatsiya-k-ilish-markazlari-ochildi-39204?ysclid=m77i7h5qgg317551550>

3. Grexem X., Gur T., Psixologiya nasiliya v seme, M., 2010.

4. Xassen S. Osvobojdienie ot psixologicheskogo nasiliya. —SPb.: PraymEvroznak, 2001. —400 s.

5. Xolostova, E. I. Sosialnaya reabilitatsiya : ucheb. posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po specialnosti "Sos. rabota" / E. I. Xolostova, N. F. Dementeva. - 3-e izd. - M.: Dashkov i K, 2004. – 338 s

6. Gordeeva, A. V. Reabilitatsionnaya pedagogika / A. V. Gordeeva. - Moskva : Paradigma : Akademicheskii Proekt, 2005.

7. Zubritskaya A. S. Oiladagi zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollarga psixologik yordamning xususiyatlari // tinch okeani davlat iqtisodiyot universiteti gazetasi. 2014. № 3. 580 s.

8. Platonov yu. p. Oiladagi zo'ravonlikdan omon qolganlarni psixologik qo'llab-quvvatlash. Sankt-Peterburg: Yulduz, 2015 Yil. 150 sahifa 23.